

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI**

AXATOV XUDAYNAZAR NORIM O‘G‘LI

**DOIRAVIY SILINDRIK QATLAMLI STRUKTURALARNING
QOVUSHOQ SUYUQLIK BILAN O‘ZARO NOSTATSIONAR
TA’SIRLASHUVI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on Physical and Mathematical sciences**

Axatov Xudaynazar Norim o'g'li

Doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik bilan o'zaro
nostatsionar ta'sirlashuvi..... 3

Ахатов Худайназар Норим угли

Нестационарное взаимодействие круговых цилиндрических слоистых
структур с вязкой жидкостью..... 23

Akhatov Khudaynazar Norim o'g'li

Unsteady interaction of circular cylindrical layered structures with viscous
liquid..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 46

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PHD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI**

AXATOV XUDAYNAZAR NORIM O‘G‘LI

**DOIRAVIY SILINDRIK QATLAMLI STRUKTURALARNING
QOVUSHOQ SUYUQLIK BILAN O‘ZARO NOSTATSIONAR
TA’SIRLASHUVI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1305 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bmti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Yalg'ashev Burxon Fayzullayevich

fizika va matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich

fizika va matematika fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Sharofiddin Sayfiddinovich

fizika va matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tatqiqotlar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli ilmiy kengashning 2025_ yil «28_»oktabr kuni soat 09³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100118, Buxoro sh., Qayum Murtazoyev ko'chasi ,15-uy. Tel (99865) 223-78-84; faks: (99865) 223-79-72; e-mail: bmti_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (473 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro sh., Qayum Murtazoyev ko'chasi ,15-uy. Tel (99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «09»oktabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «29» avgust_dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. (DSc),

R.A. Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.b.f.d. (PhD)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d. (DSc), prof

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish va texnikaning har xil jabhalarida qo'llaniladigan muhandislik qurilmalarining ko'p qatlamli elementlari dinamikasini tadqiq etish, zamonaviy sonli usullarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida doiraviy ko'p qatlamli silindrik qobiqlar suv osti kemalari korpuslarida, suyuqlik yoki yoqilg'i haydash inshootlarida, havoda samolyotlarga yoqilg'i quyishda, burg'ilash jarayonlarida va turli texnik qurilmalarning og'irliklarini kamaytirgan holda mustahkamligini oshirish uchun konstruktiv elementlardan foydalanish va ularning dinamik xarakteristikalarini hisoblashning yangi usullarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan qurilmalarning muhandislar va tadqiqotchilar oldiga qo'yayotgan zamonaviy talablari doirasida konstruksiyalarning og'irliklarini kamaytirish orqali qurilishda ularning mustahkamligi va ustuvorligini ta'minlashda foydanish o'ta muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda qatlamli konstruksiyalarning tarkibiy qismlarini nostatsionar tebranishlari, jumladan, turli tashqi nostatsionar dinamik yuk ta'siridagi doiraviy silindrik uch qatlamli qobiqlarning dinamikasini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada muhandislik qurilmalarining mustahkamligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarda, xususan, dinamik yuklar ta'siri ostidagi uch qatlamli qobiq elementlarini hisoblash masalalarida mavjud matematik modellar va hisoblash usullarini takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e'tibor berilgan. Turli xildagi tebranishlar jarayonlarining matematik modellarini yaratish, aerokosmik, yer usti, yer osti va boshqa muhandislik konstruksiyalari elementlarining kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holatlarini yuqori aniqlikda topish hamda sonli tadqiq qilish deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi sohasida yangi ilmiy izlanishlar olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda texnika va qurilishning turli sohalarida har xil tabiatli dinamik yuklar ta'siri ostidagi yuk tashuvchi va ko'taruvchi muhandislik qurilmalari deformatsiyasini hisoblash matematik modelini yaratish va amaliyotga keng tadbqiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha, jumladan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida, xususan, «... ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish ...»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, qurilmalarning yuk ko'tarish qobiliyatlarini, jumladan uch qatlamli qovushoq-elastik qobiqlar yordamida amalga oshirish maqsadida qurilmalar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

elementlarining deformatsiyalanish jarayonlarini ifodalovchi takomillashtirilgan matematik modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 9-avgustdagi PQ-3190-son “O‘zbekiston Respublikasi hududi va aholisining seysmik xavfsizligi, seysmik chidamli qurilish va seysmologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 2-fevraldagi PQ-3502-son “2018-2022 yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta‘minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.

Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV «Matematika, mexanika va informatika» sohasidagi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qobiqlarning dinamikasini o‘rganish Kirxgoff-Lyav gipotezalariga asoslangan klassik nazariya asosida bajariladi. Ammo klassik nazariya qobiqning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati komponentalarini to‘liq hisoblash imkonini bermaydi. Shuning uchun bu nazariyani rivojlantirish ustida juda ko‘p olimlar ish olib borgan va bu ishlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqliklar bilan o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonlarining matematik modelini yaratish va takomillashtirishda ko‘plab xorijiy olimlar I.G.Filippov, X.Altenbax, E.I.Grigolyuk, S.H.Arshad, M.N.Naim, Abassi, X.Yajuan, F.Pellicano, P.B.Gonsalves, A.S.Sayyod, Y.M.Ghugal, J.N.Reddi, S.G.Pshenichnov, S.V.Ivanov, L.I.Mogilevich, S.B.Filippov, V.V.Gaidaichuk, K.E.Kotenko, H.A.Shahid, N.N.Muhammad, A.C.Чепурненко, A.N.Guz, B.B.Firsanov va boshqalarning hissalari kattadir.

Shu jumladan bir qator o‘zbek olimlari X.A.Raxmatulin, M.T.O‘razboev, T.R.Rashidov, Ya.N.Muborakov, T.Sh.Shirinkulov, M.Mirsaidov, I.K. Mirzayev, R.I.Xalmuradov, X.X.Xudoynazarov, K.S.Sultonov, K.Ismayilov, M.K.O‘sarov, A.B.Axmedov, B.Mardonov, T.Mavlonov, R.A.Abdukarimov, I.S.Safarov, Sh.Burqutboyev, M.X.Teshayev, Sh.S. Yuldashev, Z.I. Boltayev, B.F.Yalg‘ashev va boshqa bir qator o‘zbek olimlari bu borada salmoqli natijalarga erishganlar.

Qobiqlarning dinamikasi yoki boshqacha aytganda tebranishlarni o‘rganuvchi takomillashtirilgan nazariyalarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar, asosan ikki katta yo‘nalishga ega. Bulardan birinchisi asimptotik nazariya hamda Timoshenko va

Reyssner tipidagi nazariyalarni ishlab chiqish bo'lsa, ikkinchisi keyingi bir necha o'n yilliklarda elastiklik nazariyasi uch o'lchovli masalasining aniq yechimlaridan foydalanishga asoslangan qobiq tebranishlari nazariyalarini yaratishdan iborat. Ko'rsatilgan metod bo'yicha professorlar G.I.Petrashen va I.G.Filippovlar hamda ularning bir qator o'quvchilari tomonidan bir jinsli (bir qatlamli), qatlamli elastik va qovushoq-elastik qobiqlarning tebranishlari nazariyalari taklif etilgan. Nazariyalarni ishlab chiqishda, qator mutaxassislar fikriga ko'ra bir qancha muammolarga duch kelingan, xususan:

chegaraviy shartlar qobiq ichki qatlamlaridan birining o'rta sirti nuqtalari ko'chishlarining bosh qismlariga nisbatan shakllantirilgan. Bunday yondashuv ba'zi noaniqliklarga olib keladi, chunki tashqi yuklar qobiqning tashqi sirtlariga qo'yilgan bo'ladi;

noma'lum izlanuvchilar sifatida qobiq ichki qatlamlaridan birining o'rta sirti nuqtalari ko'chishlarining bosh qismlari qabul qilinadi (uch qatlamli qobiq holida o'rta sirt sifatida to'ldiruvchi qatlamning o'rta sirti olinadi). Ushbu bosh qismlar soni ko'chishlar soniga proporsional bo'lib umumiy holda oltitadan oshmasligi kerak. Agar chegaraviy shartlar aniq shakllantirilsa, ya'ni ular qobiq tashqi sirtlari ko'chishlarining bosh qismlariga nisbatan yozilsa, noma'lumlar soni o'n ikkitani tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida ularni aniqlash uchun qo'llaniladigan differensial yoki integro-differensial tenglamalar sonining oshishiga va ularni yechish bilan bog'liq qator matematik muammolarga olib keladi.

qo'llanilgan yondoshuvlar, faqatgina qabul qilingan o'rta sirtga nisbatan simmetrik strukturali qatlamli qobiqlarni tadqiq qilish imkonini beradi;

Bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda materialning qovushoq-elastiklik xossalarini hisobga olgan va turli tashqi dinamik yuklanishlar ta'siri ostidagi qatlamli elementlarning, xususan, uch qatlamli qovushoq-elastik qobiqlarning nostatsionar tebranishlari nazariyasi, tebranish va ustuvorlik masalalarini yechish usullari va algoritmlarini ishlab chiqishdagi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №18.04.00-6 raqamli "Qurilish konstruksiyalarini muhitning ta'sirini hisobga olgan holda bir jinsli bo'lmagan, chiziqlimas, elastik xususiyatli, dinamikasi, zilzilabardoshligi hamda ustivorligi masalalarini nazariy va amaliy tadqiq etish" (2000-2025) mavzusidagi tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvida nostatsionar, o'qqa nisbatan simmetrik tebranishlarini dinamik hisoblashning matematik modellarini ishlab chiqish; uch qatlamli qobiqlarning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalarida ko'chish va kuchlanish maydonlarini aniqlash algoritmlarini yaratish; ishlab chiqilgan modellarni uch

qatlamli kompozit va bir jinsli silindrik qobiqlar tebranishlarining amaliy masalalarini yechish uchun qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

doiraviy silindrik qatlamli qovushoq elastik va elastik strukturalarning nostatsionar buralma tebranishlari tashqi dinamik yuklar ta'sirini hisobga oluvchi matematik modelini ishlab chiqish;

-uch qatlamli qovushoq elastik qobiq ixtiyoriy ko'ndalang kesimi nuqtalarining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash algoritmini yaratish;

dinamik yuklanishlar ta'siri ostidagi doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik bilan ta'sirida tebranishlari uchun yangi amaliy masalalar qo'yish va hisob usulini ishlab chiqish;

qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik ta'sirida qovushoq elastik qatlamlarning geometrik, fizik va mexanik xarakteristikalarining ko'ndalang kesim ixtiyoriy nuqtasidagi kuchlanish tenzori, ko'chish vektori komponentalarining vaqtga bog'liq qonuniyatlarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik qatlamli strukturalar olingan.

Tadqiqotning predmeti o'zgaruvchi yuklanishlar ta'siri ostidagi doiraviy silindrik qovushoq elastik strukturalarning nostatsionar tebranishlarini o'rganish.

Tadqiqotning usullari tadqiqot usuli sifatida G.I.Petrashen – I.G.Filippovning tadqiqot jarayonida aksioma va gipotezalardan foydalanmasdan tenglamalarni chiqarish metodi, Fur'e va Laplasning integral almashtirish metodlari, shuningdek boshqa analitik va sonli hisoblash va tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvini hisobga olgan holda buralma tebranishlari o'rganishda tashqi dinamik yuklar ta'sirini hisobga oluvchi matematik model yaratilgan;

doiraviy silindrik uch qatlamli silindrik qobiqning ishlab chiqilgan nostatsionar tebranishlari tenglamalaridan, xususiy hollarda bir jinsli qobiq va sterjenlar tebranishlari tenglamalariga kelishi isbotlangan;

doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning ixtiyoriy ko'ndalang kesimi nuqtalarining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini vaqtning istalgan momentida aniqlash imkonini beruvchi samarali usuli ishlab chiqilgan;

ichki qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi qatlamli qobiq tebranishlari uchun yangi amaliy masalalar qo'yilgan hamda tegishli mos chegaraviy shartlar asosida uch qatlamli qobiqning garmonik tebranishlari va dinamik yuklar tasiridagi majburiy tebranishlari haqidagi xususiy masalalarni yechish usullari yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tashqi dinamik yuklar ta'siridagi uch qatlamli qovushoq-elastik qobiqlarning buralma tebranishlarini tadqiq qilish matematik amaliy modeli va kuchlanganlik

deformatsiyalanganlik holatini bir qiymatli aniqlash imkonini beruvchi samarali usul taklif etilgan;

uch qatlamli elastik qobiq erkin tebranishlari chastotasiga bog'lik o'zgarish qonuniyatini o'rganish natijalari hamda qobiq chetlari turlicha mahkamlanganda uch qatlamli qobiqning nostatsionar buralma tebranishlari amaliy masalalari yechimlari taklif etilgan;

dinamik, xususan tashqi yuklar ta'siri ostidagi qatlamli strukturalarning ko'ndalang tebranishlarida, uning ixtiyoriy nuqtalarining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini xarakterlovchi parametrlarning koordinata va vaqtdan bog'liq o'zgarishlari grafik ko'rinishda tasvirlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Furrye-Laplas integral almashrirlarini qo'llash, darajali qatorlarga yoyish usullari va matematik yondoshuvlar asosida tebranish tenglamalarini keltirib chiqarilganligi, boshqa mualliflarning natijalari bilan, xususiyl holda, bir jinsli doiraviy silindrik qobiq uchun olingan natijalar bilan, tizimli tekshirish orqali isbotlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi uch qatlamli qobiqning buralma tebranishlari qonunini ifodalovchi tenglamalarini keltirib chiqarish va rivojlantirish; tashqi yuklar ta'siri ostidagi uch qatlamli elastik va qovushoq-elastik qobiqlarning simmetrik tebranishlari haqidagi yangi amaliy masalalarni yechish hamda ishlab chiqilgan usullarni chetlari turlicha mahkamlangan qobiqlar xususan uch, ikki qatlamli va bir jinsli qobiqlar uchun umumlashtirish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uch qatlamli elastik va qovushoq-elastik qobiqlarning tashqi dinamik yuklar ta'siri ostidagi simmetrik tebranishlari jarayonida kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holatini talab etilgan aniqlik bilan topishga yo'naltirilgan analitik usul va sonli algoritmlarni amaliyotda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Qovushoq suyuqlikni o'z ichiga olgan kompozit uch qatlamli silindrik qobiq (quvur) nuqtalarida tashqi impulsli yuk tasirida yuzaga keladigan normal kuchlanishning kritik qiymatlarini hisoblash "*KARVON PLAST*" MChJda quvurli uzatgichlarning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalarida chidamlilik chegarasini aniqlashda amaliyotga joriy qilindi va quyidagi natijalar olingan. (O'zbekiston Respublikasi "O'zsanoatqurilishmateriallari" Uyushmasining 2024 yil 3 - iyundagi 02/15-1330 - son ma'lumotnomasi). Natijada turli diametrli uch qatlamli quvurlarning optimal qalinligini, tashqi statik va dinamik yuklar va ichki suyuqlikning bosimini hisobga olib, quvur turli nuqtalari radial ko'chishlarini hisoblash yordamida trubaning qalinligi 0,1mm ga kamaytirish imkonini va yuk

ko'taruvchi qatlamlar uchun ishlatiladigan material 4–5% ga tejash imkoni yaratilganligi ishlanmada o'z aksini topgan;

Dinamik yuklar ta'siridagi yuqori bosimli suyuqlikni yetkazib berish uchun quvur uzatgichlarning eng katta kuchlanishlarni aniqlash orqali uch qatlamli quvurning kuch parametrlarini hisoblash «UniverProStile» MChJda joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi "O'zsanoatqurilishmateriallari" Uyushmasining 2024 yil 3 - iyundagi 02/15-1330 - son ma'lumotnomasi). Natijada qovushoq siqiluvchi suyuqlikni o'z ichiga olgan kompazit uch qatlamli silindrik struktura nuqtalarida tashqi impulsli yuk ta'sirida yuzaga keladigan normal kuchlanishning kritik qiymatlarini aniqlash uning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalariga mustahkamlik chegarasini aniqlash imkonini va olingan natijalar xarajatlarni normaga nisbatan 5–7% ga kamaytirish imkoni yaratilganligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 5 tasi xorijiy nashr (*Scopus* bazasiga kirgan) larda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan. Tadqiqot maqsadi, vazifalarni, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Doiraviy silindrik qatlamli strukturalarning qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvi**" nomli birinchi bobi qovushoq suyuqliklar bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik strukturalarning buralma tebranishlari va muvozanat holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning umumiy sharhiga hamda suyuqlik va qovushoq-elastik jism uchun asosiy harakat tenglamalari, boshlang'ich va chegaraviy shartlarni tanlashga, qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik uch qatlamli silindrik qobiqning buralma tebranish tenglamalarini keltirib chiqarishga asoslangan.

Birinchi paragrafda dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha ilmiy maqolalarni o'rganish natijasida qatlamli strukturalar dinamikasi bo'yicha tadqiqotlarning umumiy sharhi yoritilgan.

Ikkinchi paragrafida dissertatsiya ishi doirasida tadqiq qilinadigan qovushoq suyuqlik va qatlamli strukturalar tebranishlari uch o'lchovli masalasining asosiy munosabatlari keltirilgan. Tadqiqot ishida qobiqni (r, θ, z) -silindrik koordinatalar



1-rasm. Uch qatlamli silindrik qobiq.

sistemasida qaraymiz. Bunda Oz -o'qi qobiqning simmetriya o'qi bo'ylab yo'nalgan (1-rasm). Qatlamlarni 1-rasmda ko'rsatilgan tartibda raqamlaymiz. Bu yerda a va a_1 lar qobiqning ichki va tashqi radiuslarini, a_2 va a_3 lar esa o'rta qatlamning ichki va tashqi radiuslarini bildiradi. Bundan keyin biz tashqi yuk ko'taruvchi qatlamni birinchi qatlam, ichki yuk ko'taruvchi qatlamni – ikkinchi, o'rta qatlamni esa nolinchi qatlam deb nomlaymiz.

Birinchi, nolinchi va ikkinchi qatlamlar qalinliklarini mos ravishda h_1, h_0 va h_2 lar orqali; qatlam materiallari elastiklik doimiylari, ya'ni Lamé koeffitsientlarini λ_s, μ_s lar orqali; qatlamlar materiallarining zichliklarini ρ_s lar orqali belgilaymiz. Shuningdek qatlamlar nuqtalarining koordinata o'qlari bo'ylab ko'chishlarini $u_s(r, \theta, z, t), v_s(r, \theta, z, t), w_s(r, \theta, z, t)$ lar orqali belgilaymiz.

Doiraviy silindrik qobiq qatlamlari nuqtalarida $\sigma_{ij}^{(s)}, \tau_{ij}^{(s)}$ ($i, j = 1, 2, 3; s = 0, 1, 2$) kuchlanishlar va $\varepsilon_{ii}^{(s)}, \gamma_{ij}^{(s)}$ deformatsiyalar komponentalari orasidagi bog'lanishlar qatlam materiallarining reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda umumlashgan Guk qonuni quyidagi Bolsman integral munosabatlari ko'rinishidagi chiziqli operatorlar orqali ifodalanadi:

$$\sigma_{ii}^{(s)} = R_{\lambda s}(\varepsilon_{ii}^{(s)}) + 2R_{\mu s}(\varepsilon_{ii}^{(s)}); \tau_{ij}^{(s)} = R_{\mu s}(\gamma_{ij}^{(s)}); \quad (i, j = 1, 2, 3; i \neq j), \quad (1)$$

$$\varepsilon^{(s)} = \varepsilon_{rr}^{(s)} + \varepsilon_{\theta\theta}^{(s)} + \varepsilon_{zz}^{(s)}$$

Qatlamlar materiallarining qovushoq-elastiklik xossalari quyidagi integral operatorlar bilan hisobga olinadi:

$$R_{(\lambda, \mu)s}(\zeta) = (\lambda_s, \mu_s) \left[\zeta(t) - \int_0^t K_{(\lambda, \mu)s}(t - \tau) \zeta(\tau) d\tau \right], \quad (2)$$

bu yerda $\zeta(t)$ vaqtning ixtoriy funksiyasi, $K_{\lambda s}(\tau), K_{\mu s}(\tau) - R_{\lambda s}$ va $R_{\mu s}$ qovushoq-elastik operatorlarning qatlamlar materiallari xossalari bog'liq bo'lgan yadrolari. Bunda $R_{\lambda s}$ va $R_{\mu s}$ -qaytarish operatorlar, $K_{\lambda s}(\xi)$ va $K_{\mu s}(\xi)$ yadrolar esa – ixtoriy. Ammo aniq masalalar yechishda eksponensial funksiya hisobga olinadi.

Hajmiy kuchlarni hisobga olmaganda doiraviy silindrik qatlam nuqtalarining harakat tenglamalari ko‘rinishda olinadi.

$$\sigma_{ij,j} = \rho_s \frac{\partial U_i}{\partial t^2}; (i, j = r, \theta, z) \quad (3)$$

bu yerda U_i - qatlam nuqtalarining ko‘chish vektorlari; t - vaqt.

Qobiq nuqtalarining harakat tenglamalari qatlamlar ko‘chish $\vec{U}^{(s)}$ vektorlarini skalyar φ_s va vektor $\vec{\psi}_s$ potentsiallar orqali ifodalab quyidagi integro-differensial tenglamalarga keltirilgan

$$R_s(\Delta\varphi^{(s)}) = \rho_s \ddot{\varphi}_s; R_{\mu s}(\Delta\vec{\phi}_s) = \rho_s \ddot{\vec{\phi}}_s; \quad (s=0,1,2) \quad (4)$$

Kiritilgan skalyar va vektor potentsiallar orqali ko‘chish vektorlari, kuchlanish va deformatsiya tenzorlarining hamma komponentalari ifodalangan formulalar olingan.

Qovushoq siqiluvchan suyuqlik zarrachalari tebranishlarini kichik deb hisoblaymiz. Bunda ichki suyuqlikni siqiluvchan suyuqlik deb qaraymiz U holda suyuqlikning chiziqli tebranishlar nazariyasidan qovushoq suyuqlikning Nav’e-Stoks harakat tenglamalaridan foydalanamiz:

$$\frac{d\vec{V}}{dt} - \nu' \Delta \vec{V} + \frac{1}{\rho'_0} \text{grad} p + \frac{1}{3} \nu' \text{grad} \text{div} \vec{V} = 0, \quad (5)$$

bu yerda $\vec{V}$ - suyuqlik ixtiyoriy zarrachasi tezlik vektori, ρ'_0 - tinch holatdagi suyuqlik zichligi, ν' - kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti, Δ - laplas operatori.

Suyuqlik uzviylik tenglamasi

$$\frac{1}{\rho'_0} \frac{d\rho'}{dt} + \text{div} \vec{v} = 0, \quad (6)$$

ρ' -qo‘zg‘algan suyuqlik zichligi, suyuqlik nuqtalarida kuchlanish tensorining komponentlari uchun Nave-Stoks qonuni formulalari

$$P_{ij} = -p\delta_{ij} - \frac{2\mu'}{3} \delta_{ij} \text{div} \vec{v} + \mu' e_{ij}, \quad (7)$$

$$e_{ij} = \frac{1}{2} (v_{i,j} + v_{j,i}) \quad (i, j = r, \theta, z)$$

bu yerda P_{ij} ($i, j = r, \theta, z$) - suyuqlikda kuchlanish tenzori komponentalari, δ_{ij} - Kroneker simvoli, p - qo‘zg‘atilgan suyuqlik bosimi, μ' - qovushoqlik koeffitsienti.

Suyuqlik uchun uzviylik tenglamasi, Nave Stoks tenglamasi va Nave Stoks qonunidan tashqari chiziqli holat tenglamasidan ham foydalanamiz

$$\frac{\partial p}{\partial \rho'} = a_0^2, \quad a_0 = \text{const}. \quad (8)$$

a_0 - tinch holatdagi suyuqlikda tovush tarqalish tezligi, $\mu' = \rho'_0 \nu'$ - qovushoqlik koeffitsiyenti.

Qovushoq suyuqlik harakati uchun skalyar G va vektor $\vec{\chi}$ potentsiallar kiritib qovushoq suyuqlik uchun quyidagi potentsiallar orqali tenglamalarga ega bo‘lamiz

$$\vec{V} = \frac{\partial}{\partial t}(\text{grad}G + \text{rot}\vec{\chi}), \quad (9)$$

bu yerda $\vec{\chi}$ vektor potentsial ushbu tenglamani qanoatlantirishi zarur

$$\left(\frac{\partial}{\partial t} - \nu'\Delta\right)\vec{\chi} = 0.$$

Uch qatlamli qobiqning buralma tebranishlari uchun chegaraviy shartlar quyidagi ko‘rinishga ega.

$$\sigma_{r\theta}^{(2)}(r, z, t) = F_{r\theta}^{(2)}(z, t) \quad (10)$$

bu yerda $F_{r\theta}^{(2)}(z, t)$ tashqi ta’sirlarning funksiyalari. Bundan tashqari, qatlamlar va suyuqlik zarrachalari orasidagi chegara sirtlarida kontakt shartlariga ko‘ra, ko‘chishlar va kuchlanishlarning tengligi shartlari bajarilishi kerak. Nolinchi, birinchi va ikkinchi qatlamlar va suyuqlik zarrachalari orasidagi kontakt shartlar quyidagicha

$$\begin{aligned} V_{\theta}^{(1)}(a, z, t) &= \frac{\partial}{\partial t} u_{\theta}^{(1)}(a, z, t), & -p_{r\theta}(a, z, t) &= \sigma_{r\theta}^{(1)}(a, z, t), \\ u_{\theta}^{(0)}(a_1, z, t) &= u_{\theta}^{(1)}(a_1, z, t), & \sigma_{r\theta}^{(0)}(a_1, z, t) &= \sigma_{r\theta}^{(1)}(a_1, z, t), \\ u_{\theta}^{(0)}(a_2, z, t) &= u_{\theta}^{(2)}(a_2, z, t), & \sigma_{r\theta}^{(0)}(a_2, z, t) &= \sigma_{r\theta}^{(2)}(a_2, z, t). \end{aligned} \quad (11)$$

Masalaning boshlang‘ich shartlari nolga teng

$$\psi_m(r, z, t) = \frac{\partial \psi_m(r, z, t)}{\partial t} = 0. \quad (12)$$

Birinchi bobning uchinchi paragrafida ichki qovushoq suyuqlik bilan ta’sirlashuvchi doiraviy silindrik uch qatlamli qobiqning buralma tebranish tenglamalarining matematik madeli keltirib chiqarilgan. Doiraviy silindrik qatlam va suyuqlik oqimlari uchun harakat tenglamalari hamda masalaning o‘qqa nisbatan simmetrikligiga ko‘ra buralma tebranayotgan jism uchun harakat tenglamalari quyidagi sistemadan iborat bo‘ladi

$$\begin{aligned} M_{\mu_1}(\Delta\psi_1) &= \frac{1}{b_1^2} \frac{\partial^2 \psi_1}{\partial t^2}, & M_{\mu_0}(\Delta\psi_0) &= \frac{1}{b_0^2} \frac{\partial^2 \psi_0}{\partial t^2}, \\ M_{\mu_2}(\Delta\psi_2) &= \frac{1}{b_2^2} \frac{\partial^2 \psi_2}{\partial t^2}, & \left(\frac{\partial}{\partial t} - \nu'\Delta\right)\vec{\chi} &= 0. \end{aligned} \quad (13)$$

Qobiq qatlamlari materiallarining buralma to‘lqin potentsial funksiyalarini quyidagi ko‘rinishda tasvirlaymiz.

$$\psi_s(r, z, t) = \int_0^{\infty} \frac{\sin kz}{-\cos kz} dk \int_{(I)} \bar{\psi} e_s^{qt} dq, \quad \chi(r, z, t) = \int_0^{\infty} \frac{\sin kz}{-\cos kz} dk \int_{(I)} \bar{\chi} e_s^{qt} dq, \quad (14)$$

So‘ngra, (13) harakat tenglamalariga (14) almashtirishlarni qo‘yib quyidagi Bessel tenglamalariga ega bo‘lamiz

$$\left(\frac{d^2}{dr^2} - \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \alpha_s^2\right)\bar{\psi}_s = 0, \quad \left(\frac{d^2}{dr^2} - \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \gamma^2\right)\bar{\chi} = 0, \quad (15)$$

bu yerda $\alpha_s^2 = \frac{q^2}{b_s^2} M_{\mu_s}^{-1} + k^2$, $\gamma^2 = \frac{q}{v'} + k^2$, $M_{\mu_s} = 1 - f(q)$, $f(q) = \int_0^\infty f(t) \cdot e^{-qt} dt$.

Yuqoridagi (15) Bessel tenglamalarining chegaralanganlik shartlarini qanoatlantiruvchi umumiy yechimlari quyidagi ko'rinishga ega.

$$\begin{aligned} \tilde{\psi}_s(r) &= H_s^{(1)} J_0(\alpha_s r) + H_s^{(2)} Y_0(\beta_s r); \quad (s = 0, 1, 2), \\ \chi &= D_1 J_0(\gamma r) \end{aligned} \quad (16)$$

bu yerda $H_s^{(i)}(k, p)$, $D_1(k, p)$, $(s = 0, 1, 2, i = 1, 2)$, r - radial o'zgaruvchiga bog'liq bo'lmagan chegaraviy shartlardan aniqlanadigan integral o'zgaruvchilari, $J_0(r)$, $Y_0(r)$ - Besselning modifitsirlangan funktsiyalari.

Yuqorida keltirilgan (10), (11), (12) va (13) tenglamalar sistemasi birgalikda yechilib, qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik uch qatlamli qobiqning buralma tebranishlari tenglamasining matematik modeli olingan.

$$\begin{aligned} \left(M_{\mu_0}^{-1} \mu' \frac{a^2}{6} q \delta + \frac{a^2}{a_1^2} \left(1 + \frac{a^2 - a_1^2}{12} \lambda_1 \right) \right) \left(\frac{a_1^2}{4} \lambda_0 u_{\theta,0}^{(0)} + \xi \left(\frac{1}{2} \lambda_0 - \frac{2}{a_1^2} \right) u_{\theta,1}^{(0)} \right) &= M_{\mu_0}^{-1} f_{r\theta}^{(1)}(k, q), \\ \frac{a_2^2}{a_3^2} \left(1 + \frac{a_2^2 - a_3^2}{4} \lambda_2 \right) \left(\frac{a_2^2}{4} \lambda_0 u_{\theta,0}^{(0)} + \xi \left(\frac{1}{2} \lambda_0 - \frac{2}{a_2^2} \right) u_{\theta,1}^{(0)} \right) &= M_{\mu_0}^{-1} f_{r\theta}^{(2)}(k, q). \end{aligned} \quad (17)$$

Dissertatsiyaning **“Doiraviy silindrik ikki qatlamli qobiqning qovushoq suyuqlik bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvi”** deb nomlangan ikkinchi bobi doirasida, qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi ikki qatlamli qovushoq-elastik, simmetrik strukturali qobiqning buralma tebranishlari tenglamalari keltirib chiqarildi. Bunda chegaraviy shartlar qobiq tashqi sirtlari nuqtalaridagi kuchlanishlarga nisbatan shakllantirilgan va qovushoq-elastiklik nazariyasi aniq yechimlar usulidan foydalanilgan.

Bobning *birinchi paragrafi* doiraviy silindrik ikki qatlamli qobiqning qovushoq suyuqlik bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvida buralma tebranish tenglamalarini keltirib chiqarishga bag'ishlangan. Silindrik qatlam va suyuqlik oqimlari uchun (13) harakat tenglamalaridan foydalanilgan. Qatlamlarning kontakt sirtida urinma kuchlanishlarga nisbatan ifodalangan quyidagi dinamik shartlar bajarilishi kerak

$$\sigma_{r\theta}^{(1)}(r, z, t) \Big|_{r=\theta_2} = F_{r\theta}^{(1)}(z, t). \quad (18)$$

Ma'lumki gidroelastiklik masalalari qattiq jism va qovushoq suyuqlikning kontakt sirtida dinamik va kinematik shartlar asosida qo'yiladi. Qovushoq suyuqlik bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvi muhandislik konstruksiyalari elementlarining buralma tebranishlari haqidagi masalalarning matematik qo'yilishida ushbu sirtidagi urinma kuchlanishlar tengligi hisobga olinishi kerak va suyuqlik harakati uchun Nave-Stoks tenglamasidan foydalanish zarur. Suyuqlik zarrachalarining tezligi qatlam nuqtalarining tezliklari teng bo'lishi lozim. U holda qatlamlar uchun kinematik shartlar quyidagicha

$$\begin{cases} u_{\theta}^{(0)}(r, z, t)|_{r=a_1} = u_{\theta}^{(1)}(r, z, t)|_{r=a_1}; \\ \sigma_{r\theta}^{(1)}(r, z, t)|_{r=a_1} = \sigma_{r\theta}^{(0)}(r, z, t)|_{r=a_1} \end{cases} \quad (19)$$

Qatlam va suyuqlik uchun kinematik shartlar

$$\begin{cases} V_{\theta}(r, z, t)|_{r=a} = \frac{\partial}{\partial t} u_{\theta}(r, z, t)|_{r=a}; \\ \sigma_{r\theta}^{(0)}(r, z, t)|_{r=a} = -p_{r\theta}(r, z, t)|_{r=a} \end{cases} \quad (20)$$

bu yerda $\vec{V}_{\theta}$ -suyuqlik zarrachasining tezlik vektori, V_i ($i = r, \theta, z$)-uning komponentalari, p_{ij} ($i, j = r, \theta, z$) - suyuqlikda kuchlanish tenzori komponentalari

Boshlang'ich shartlar nolga teng

$$\psi_s(r, z, t) = \frac{\partial \psi_s(r, z, t)}{\partial t} = 0. \quad (21)$$

Yuqorida keltirilgan (15), (19), (20) va (21) tenglamalar sistemasi birgalikda yechilib, qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik ikki qatlamli qobiqning buralma tebranishlari tenglamasining matematik modeli olingan.

$$\begin{aligned} & \frac{a_1^2}{4a_2^2} \left[4 + h_1(2a_1 + h_1)\lambda_1 + \frac{a_1^2 h_1}{4}(2a_1 + h_1)\lambda_1^2 \right] \times \left[\frac{a_1^2}{4} \lambda_0 u_{\theta,0}^{(0)} + \right. \\ & \left. + \xi \left(\frac{1}{2}(\lambda_0 - \frac{4}{a_1^2}) + \frac{a_1^2}{8}(\ln \frac{a_1}{\xi} - \frac{1}{4})\lambda_0^2 \right) u_{\theta,1}^{(0)} \right] = \bar{M}_{\mu_1}^{-1} [f_{r\theta}^{(2)}(k, p)]; \\ & \left(\frac{a^2}{4} \lambda_0 - \frac{\mu' a^2}{6} \bar{M}_{\mu_0}^{-1} q \delta_0 \right) u_{\theta,0}^{(0)} + \xi \left(\frac{1}{2}(\lambda_0 - \frac{4}{a^2}) + \right. \\ & \left. + \frac{a^2}{8}(\ln \frac{a}{\xi} - \frac{1}{4})\lambda_0^2 - \frac{\mu'}{6} \bar{M}_{\mu_0}^{-1} q \delta_0 - \frac{\mu' a^2}{12} \bar{M}_{\mu_0}^{-1} \ln \frac{a}{\xi} q \delta_0 \lambda_0 \right) u_{\theta,1}^{(0)} = 0 \end{aligned} \quad (22)$$

bu yerda h_1 -tashqi qatlamning qalinligi, μ' -dinamik qovushoqlik koefsiyenti, M_{μ_0} qovushoq-elastik operator, ξ - o'rta sirt radiusi,

Bobning *ikkinchi paragrafi* qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik ikki qatlamli qobiqning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash masalasi hal qilingan. Bunda o'zgarmas tezliklar bilan oquvchi, ichki qovushoq siqiluvchi suyuqliklar oqimlarining ta'sirini hisobga olib, doiraviy silindrik ikki qatlamli qobiqlarning nostatsionar buralma tebranishlarida, uning ixtiyoriy kesimi nuqtalaridagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash algoritmini yaratilgan. Ushbu algoritm o'z ichiga qaralayotgan gidroelastik sistemaning buralma tebranishlarida silindrik qatlam nuqtalarining faqat buralma ko'chishlari $u_{\theta}^{(i)}$, uning kesimlaridagi $\sigma_{r\theta}, \sigma_{z\theta}$ kuchlanish, hamda suyuqliklar oqimlari zarrachalari tezlik vektorlarining urinma V_{θ} komponentalari va qovushoq suyuqliklar nuqtalaridagi $p_{r\theta}$ va $p_{z\theta}$ kuchlanishlar noldan farqli bo'ladilar.

Bobning *uchinchi paragrafi* ichki qovushoq suyuqliklar bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik ikki qatlamli qovushoq elastik qobiqning garmonik buralma tebranishlari masalasi tadqiq qilingan. Buning uchun tebranishlar asosiy tenglamalari sifatida (22) tenglamalar sistemasi qabul qilingan.

Bu holda qovushoq-elastiklik (3) integral operatorining $f(t-\tau)$ yadrosi quyidagi regular ko'rinishda qabul qilingan

$$f(t) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\nu_n}{\tau_n} e^{-\frac{t}{\tau_n}}, \quad \sum_{n=1}^{\infty} \nu_n = 1, \quad (23)$$

bu yerda ν_n – jismning qovushoqlik parametrlari; τ_n – relaksatsiya vaqtlari. Masalada sonli natijalarning qiymatlari olingan. Olingan natijalar tebranish chastotasining to'liq soniga bog'liq grafiklari keltirilgan.

Bobning to'rtinchi paragrafida ichki radiusi a , tashqi radiusi a_1 , uzunligi l ga teng bo'lgan ichki tomondan qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi silindrik qobiqni (r, θ, z) silindrik koordinatalar sistemasida qaraymiz. Qobiqning erkin uchiga $z=0$ amplitudasi $g(t)$ kabi berilgan kinematik zarba qo'yilgan. Qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik qobiqning ixtiyoriy kesimidagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holat parametrlari fazoviy z koordinata va t vaqtga bog'liq ravishda aniqlansin.

Asosiy tebranish tenglamasi sifatida birinchi paragrafda keltirib chiqarilgan (22) tenglamalar sistemasidagi $a_1 = a_2$ teng desak quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz.

